



# IX-XII ASR MADANIYATI



◉ *Reja:*

- 1. IX – XII asrlardagi Sharq Uyg`onish davri va uning asosiy omillari.
- 2. Me`morchilik va tasviriy san`at yuksalishi.
- 3. Sharq Uyg`onish davri allomalari ijodining jahon fani ravnaqidagi o`rni.

# © Sharq uyg`onish davri va uning asosiy omillari

1. Madaniyatda dunyoviy bilimlar, Islom ahkomlari, aqidalarining rivojlanishi, ularning jamiyat va odamlar manfaatlarini nuqtai nazaridan talqin etilishi;
2. Turli davlatlar, xalqlarning (arab, eron, yunon, hind, turkiy va boshqa) madaniy meroslari, qadriyatlarini, yutuqlarini ma`naviy boyliklardan foydalanish zarurligi;
3. Astronomiya, matematika, minerologiya, jug`rofiya, kimyo va tabiiy fanlar rivoji;


- 4. Uslub (metodologiya) da ratsionalizm, (oqilonalik), mantiqning ustuvorligi;**
- 5. Insoniy do`stlik, yuksak ahloqiylik g`oyalarining targ`ib etilishi, komil inson shaxsini shakllantirib voyaga yetkazish;**
- 6. Falsafa va tarix fanlarining o`sishi;**
- 7. Adabiyot, musiqa badiiy madaniyat notiqlikning keng rivoj topishi;**
- 8. Bilimdonlik, donishmandlikning qomusiy tarzda keng e`tirof topishi**

# SHARQ UYG'ONISH DAVRI ALLOMALRI



# ABU RAYXON BERUNIY

## (973-1048)



### Asarlari:

- «Qadimgi xalqlarning qoldirgan yodgorliklari»
- «Xorazmning mashhur kishilari»
- «Hindiston», «Ma'sud qonuni»
- «Minerologiya»
- «Saydana»
- «Astrologiyaga kirish»
- «Astronimiya kaliti»
- «Jon (ruh)ning mohiyati haqida risola»
- «Jonni davolovchi quyosh kitobi»
- «Foydali savollar va to'g'ri javoblar»
- «Ibn Sino bilan yozishmalar»
- «Xattotlik haqida kitob»

# ABU RAYXON BERUNIY

Beruniy 973 yil 4 sentabrda Xorazmda tavallud topgan.

Matematika, jug'rofiya, yulduz ilmi, tibiiyot fanlariga oid ko'p kitoblarni o'qib chiqqan. Bulardan tashqari turkiy, fors va arab tillarini, qadimgi ajdodlarni tilini qunt bilan o'rgangan.

Beruniy 22 yoshida Xorazmni tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi. Avval u Afg'onistonning G'azna shahrida, so'ngra Xindistonda yashagan.

Beruniy hamma kitoblarida "Fan hamisha amaliyotga, kishilarning xo'jalik faoliyatiga xizmat qilsin" deb o'qitardi. U 75 yil umr ko'rgan. Shu davr ichida 150 dan ortiq asrlar yaratgan.



# ABU ALI IBN SINO (990 – 1037)



## Asarlari:

«Tib qonunlari»

«Kitob ush-shifo» - «Shifo kitobi»

«Donishnoma»

«Insof kitobi»

«Najot kitobi»,

«Tayr qissasi»

10 jildli «Arab tili kitobi»,



# *ABU ALI IBN SINO*

Abu Al Ibn Sino Afshona qishlog'ida 990 yilda amaldor oilasida tugilgan. Ibn Sino jaxon madanyatiga katta hisa qo'shgan mashhur ensiklopedist olim. Tabiatshinos, faylasuf, tilchi, shoir, huquqshunos, ahloqshunos astranomdir.

Ibn Sino asarlari 280 dan ortiqdir. Shulardan 40-dan ortig'i meditsinaga oid, 30 ga yaqini turli tabbiy fanlarga, 180 ta risolasi falsafa, mantiq, ruxshnoslik, geologiya, etika va ijtimoiy masalalarga, 3 risolasi musiqiy ilmga bagishlangan. Lekin bizga bu asarlarning 160 ga yaqini yetib kelgan. Asarlar orasidagi 18 jildli «Kitob uf-shifo» asarini falsafa bilimlar qomusi desa bo'ladi.



# ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY

(780 - 850)

**Asarlari:**

«Mafotixul-ulum» ( «Ilmlarning kalitlari» )

«Xisob al-jabr va al-Muqobala»

«Hind hisobi haqida kitob»

«Quyosh saotlari haqida risola»

«Astronamik jadvallar»

«Kitob surat al-arz» ( «Yer suvrati» )

«Zij» ( «Astronomiya» )

«Kitob at-tarix» ( «Tarix kitobi» )

«Musiqqa risolasi»

«Sinus zijlari»

«Yer sathini o'lchash»



# ABU ABDULLOH MUHAMMAD IBN MUSO AL-XORAZMIY

Muso Al Xorazmiy 780-yili Xorazmda tug'ilgan. Yoshligidan ilm-fanga qiziqqan. Qunt bilan arab, hind, fors va yunon tillarini o'rgangan. Shu tillarda ko'p kitoblar mutola qilgan. Xorazmiy (813-833) "Bayt ul-hikma"da mudis sifatida faoliyat ko'rsatadi. Xorazmiy 20-dan ortiq asarlar yozadi. "Aljabr va al-muqobala", "Hind hisobi haqida", "Yer surati", "Zij", "Kitob at-tarix" va boshqalar.

"Aljabr va al-muqobala" kitobini ahamiyati nihoyatda katta. "Ziji" asari dastlabki astronomik asar bo'lib, u faqat Sharqdagina emas, G'arbda ham astronomiya fani rivoji uchun katta hizmat ko'rsatgan.



# AHMAD IBN MUHAMMAD IBN NOSIR AL-FARG'ONIY (TAXM.797, FARG'ONA - 865, MISR)



## Asarlari:

«Astronomiya asoslari haqida kitob»

«Al-Farg'oniy jadvallari»

«Oyning Yer ostida va ustida bo'lish  
vaqtlarini aniqlash haqida risola»

«Yetti iqlimni hisoblash haqida»

«Al-Xorazmiy «Zij» ning  
qarashlarini asoslash»

nazariy

# MUHAMMAD IBN NOSIR AL-FARG'ONIY



“Bayt ul hikmat” da faoliyat ko`rsatgan olimlardan yana biri buyuk astranom, matematik va geograf Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasr al Farg`oniy (797-865 yillarda yashab ijod qilgan )U farg`onada tavallud topgani uchun Sharqda Al- Farg`oniy, Yevropada esa Alfraganus taxallusi bilan shuxrat topgan. U astronomiya, matematika va geografiya fanlari bilan shug`ullangan. Qator ilmiy va amaliy asarlar yozib qoldirgan. Damashqdagi rasadxonada osmon jismlari harakati va o`rnini aniqlash, yangicha zij (astronomik jadval) yaratish ishlariga rahabarlik qildi. 832-833 – yillarda Suriya shimolida Sinjor dashtida va ar Raqqa oralig`idayer medianasini bir darajasining uzunligini aniqlashda qatnashdi.

861 yili Al- Farg`oniy rahbarligida Nil daryosi sohilida qurilgan qadimgi gidrometr – daryo oqimi sathini o`lchaydigan “Miqyos an -Nil” inshoati va uning darajati qayt tiklandi.

# ABU NASR FAROBIY

## (875-950)



### Asarlari:

- «Imlarni kelib chiqish va tasnifi»
- «Falsafa izohlari»
- «Kattalarni aqli haqida so'z»
- «Yoshlarning aqli haqida kitob»
- «Jon (ruh)ning mohiyati haqida risola»
- «Inson a'zolari haqida risola»
- «Hajim va miqdorlar haqida so'z»
- «Musiq haqida kitob»
- «Xattotlik haqida kitob»
- «She'r va qofiyalar haqida kitob»

# ABU NASR FAROBIY

Abu Nasr Forobiy qomusiy bilim egasi bo`lgan. Uning falsafa, mantiq, matematika, fizika, kimyo, tabobat, tabiat hodisalari, tilshunoslik, shariyat, notiqlik, sanat, ahloq, talim-tarbiya va boshqa sohalarga oid asarlari keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan.

Farobiy 160dan ortiq asar yaratgan bo`lsada, afsuski ulardan bizga 40ga yaqini yetib kelgan xolos.


Forobiy kamtar va kamsuqim inson bo`lib, faqirona kun kechirgan. Saroy olimi bo`lishni istamagan.

Umri oxirida Misrda, so`ng Damashqda yashab o`sha yerda vafot etgan.

Ulug` sharq olimining merosi keyingi avlodlar uchun katta xazinadir.




# MADANIY OBIDALAR





# ISMOIL SOMONIY MAQBARASI



Maqbara IX-X asrlarga oid. Bu yerga dafn qilingan Ismoil Somoniy Buxoroda Somoniylar davlatiga asos solgan yirik siyosiy arbob hisoblanadi.. Ismoil Somoniy markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini olib borib, turli yerlardan ulamolar, adiblar, usta va hunarmandlarni Buxoroga to'plagan. Madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan. Bag'dod xalifalaridan ibrat olib, o'ziga ulkan maqbara qurdirgan.

# SULTON SAODAT MAJMUASI



XI asr. Sulton Saodat sayyidlar sulolasining maqbarasidir. Bu me'moriy majmua oilaviy maqbaralar va marosim xonalaridan iborat bo'lib, asrlar davomida tashkil topgan yaxlit inshootdir. Birinchi maqbarada IX asrning ikkinchi yarmida vafot etgan Hasan al-Amir ismli sayyidning xoki yotibdi. Payg'ambarimiz avlodlaridan hisoblanadi. Sulton Saodat mo'g'ullar istilosi paytida vayron qilingan edi. Termizning sharqiy tomoniga joylashgan bu ziyoratgoh yangidan bunyod etilgan. Qariyb yetti asr (X - XVII) davomida shakllangan bu me'moriy majmua jami yigirmaga yaqin qabrni o'z ichiga oladi.

# SHOHI ZINDA MAQBARALAR MAJMUASI



XI - XIX asrlar. Samarqandning Afrosiyob tepaligi janubida barpo qilingan bu majmuaga yigirmadan ziyod maqbara, masjid, xonaqoh va chillaxonalar kiradi. Ularning ichida eng qadimiysi - Muhammad (s.a.v.)ning amakivachchalari Qusam ibn Abbosning maqbarasi. Inshootlarning aksari Majmua tarkibida sohibqiron Amir Temurning singlisi Shirinbeka oqa, opasi Turkan oqa va xotini Tuman oqalarning maqbaralari ham mavjud.

# MINORAI KALON

XII asr. 1127 yil Qoraxoniylar davlati amiri Arslonxon tomonidan qurilgan bo'lib, pishiq g'ishtdan naqshdor shakllar uslubida ishlangan. Balandligi 50 metr, aylanma eni 9 metr. Minoraning salla shaklidagi yuqori qismi g'isht o'ymakorligi bilan bezatilib, karniz holiga keltirilgan. O'qsimon tirgak o'rtasida Arslonxonning nomi hamda binokor ustaning ismi Baqo bitilgan. Minora ichida g'ishdan aylanma zinapoya bo'lib, mezanaga olib chiqadi. Minora azon chaqirish uchun masjid va madrasalar yonida yoki ularga tutash qilib qurilgan.



# BUXORO ARKI

Buxoro arki (Buxoro, 9-12-asrlar)-shaharning qadimiy qal`asi. Ark baland tepalik ustiga qurilgan. Maydoni 4,2 ga.), Somoniylar davri (9-10-asrlar) da Ark qayta qurilgan, asosan hozirgi ko`rinishi saqlanib shayboniylar sulolasi davrida shakllangan. O`tgan yillar mobaynida tashqi va ichki qiyofasida ko`p o`zgarishlar ro`y bergan.



# VOBKENT MINORASI

XII asr oxiri. Minora 1197—1198 yillarda bino qilingan. Buxoro sadri Burhoniddin Abdulaziz II ning nomi bitilganidan minorani u qurdirganligi bilinadi. Minoraning tepa qismiga devoniy xatida "Minora 595 hijriy yilda qurib bitkazildi", deb yozilgan. "Kimki masjid qursa, o'ziga jannatdan makon qurgan bo'ladi", degan hadis ham bitilgan. O'sha davrda minoraga yondosh bir masjid va bir Madrasai sadriya mavjud bo'lib, u Movarounnahrda eng yirik bilim maskani bo'lgan. Minoraning balandligi 38,7 metrdir.

